



## **VIZUAL MATNLARNING KELIB CHIQISH TARIXI**

**Xudoyberdiyeva Nargizaxon**

*Farg'ona davlat universiteti*

*Filologiya fakulteti magistranti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada XX asr oxirida G'arb va Sharq adabiyotida keng tarqalgan vizual she'rlarning kelib chiqish tarixi va ularning taraqqiyot bosqichlari keng yoritilgan. Shu bilan birgalikda maqoladan qadimgi yozuv turlarining vizual matnlar bilan uzviy aloqasi borligi kabi masalalar ham o'rinn olgan.

**Kalit so'zlar:** konkret she'r, vizual poetika, piktografik yozuv, logografik yozuv, ideografik yozuv, aniq she'riyat, tasviriy she'riyat, fonografik yozuv.

Hozirgi globallashuv jarayonida hayotning har jabhasida yangidan yangi izlanishlar, ilmiy yangiliklar, texnologik o'zgarishlar olib borilmoqda. Jamiatning turli sohalaridagi bunday yuksalishlar, shubhasiz, xalq manfaati, inson farovonligi uchun amalgalashuv oshirilmoqda. Sivilizatsiya ta'sir o'tkazmagan hech bir soha qolmadi. Xususan, tilshunoslikda ham ikki soha o'rtaqidagi hamkorligi natijasida psixolingvistika, pragmalingvistika, kompyuterlingvistikasi, matn lingvistikasi, lingvokulturologiya , psixolingvistika , neyrolingvistika, sotsiolingvistika kabi yangi tilshunoslik sohalarining vujudga kelishi gapimizning yaqqol isbotidir. Umuman olganda tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak barcha fanlar falsafa negizida shakllanganligiga guvoh bo'lamiz. Endi ilmiy tadqiqotchilar o'z e'tiborlarini ana shu yangi sohalarga qarata boshladi. Shuncha izlanishlarga qaramay hali o'z yechimini topmagan yashirin tadqiqotlar talaygina. Shulardan biri bugun biz tilga olmoqchi bo'lgan vizual matn masalasidir. Vizual matn haqida gapirishdan avval vizual terminiga to'xtalib o'tishni joiz deb bilaman. Zero, " har qanday fan



sohasining shakllanishi va rivojlanishi ushbu soha obyektiga nisbatan qiziqish paydo bo'lishidan boshlanadi." ( Safarov Sh. Pragmalingvistika.13).<sup>1</sup>

"Vizual" lotincha " visualis" so'zidan olingn bo'lib " ko'rishga oid "( izohli lug'at) <sup>2</sup> degan ma'noni anglatadi. Demak vizual matn ko'rish orqali yanada teran anglashiladigan matn turi sanaladi. Hozirgi zamonaviy adabiyotda vizual poetika deb ataluvchi she'r shakli ham shakllangan. Bu " she'rda qo'llangan material bilan tasvirni kengaytirishga va shaklda o'ynashga harakat qiladigan uslubdir."( Turk Görsel. 2020)<sup>3</sup>. Ko'plab adabiyotchilar tomonidan bu she'r turi tanqid ostiga olingan.

Vizual matn va vizual poetika haqida gap borar ekan , dastlab, vizual matnlar qaysi davrda shakllangan? Ularning taraqqiyot bosqichlari qanday?-degan savollarga javob topishimiz lozim deb o'ylayman. " Konkret va tasviriy she'riyat tushunchalari 1950- yillardan keyin paydo bo'lgan bo'lsa ham, rasm va yozuv, rasm va she'riyat munosabatlarini qadimgi ibridoiy davrga qadash mumkin" ( Çağdaş Türk edebiyatında Görsel şiir. Gökhan Tunç. 250).<sup>4</sup>

Xususan, tarixdan ma'lumki, insoniyatning neandertal davrga kelib aqliy faoliyati anchagina rivojlanadi. Shu boisdan ular o'zları bilgan ma'lumotlarni saqlash zarurligini bildilar. " Asrlar davomida qaysidir ma'noda qabila shu qadar ko'p kerakli ma'lumotlarni to'pladiki, og'zaki hikoyachilar xotirasi endi ularni o'z ichiga olmaydi" ( euromadik. 2014. 10.25).<sup>5</sup> Shunday murakkab vaziyatda insoniyat tarixida hozirgi kunda biz yozuv deb ataydigan axborotni saqlovchi vosita o'rtaga chiqdi. Bizda tabiiy ravishda yozuv nima degan savol tug'iladi. " Yozuv- kishilik aloqasida muhim vositadir. Yozuvning eng afzal tomoni unga vaqt va masofaning

<sup>1</sup> Safarov Sh. Pragmalingvistika-Toshkent , 2006

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild-Toshkent, O'zbekiston. 2020

<sup>3</sup> Gökhan T. Çağdaş turk edebiyatında görsel şiir - İstanbul, 2020. 120- b

<sup>4</sup> Gökhan T. Çağdaş türk edebiyatında görsel şiir-İstanbul, 2020. 250-b

<sup>5</sup> Euromadik, 2014



ahamiyatsizligidir. Yozuv jamiyatning madaniy taraqqiyotida muhim faktordir". (Xolmonova Z. T. Tilshunoslika kirish- T. 2007. 21-22).<sup>6</sup>

Yanada aniqrog'i yozuv- xalqlarning ijtimoiy ahvoli, urf- odatlari, marosim va qadriyatlari, umuman olganda, butun etnogenezi haqida xabar beruvchi ilk manba. " Fanda piktografik, logografik, ieroglifik, fonetik kabi yozuv turlari mavjud" ( Xolmonova. 86).<sup>7</sup> Shulardan , dastlab, piktografik yozuv turiga to'xtalib o'tsak. " Piktografiya lotincha pictus- chizilgan, grapho- yozaman so'zlaridan olingan bo'lib, yozuvning rivojlanish bosqichlaridan, fonetik yozuvdan oldingi yozuv turi. Muayyan axborot mazmunini biron bir rasm yoki qat'iy ketma- ket kelgan rasmlarda aks ettirish usuli.( O'zME. Birinchi jild.- T. 2000). "<sup>8</sup> Voqeahodisalar haqidagi tafakkur ma'lumotlarni jonli va jonsiz vositalar orqali ifodalaydigan yozuv piktografik yozuv hisoblanadi. Bu atama " chizaman" va " yozaman" degan ma'nolardagi so'zlardan tuzilgan. Yozuvning bu turi ma'lumotlarni dastlabki qaydlarini yetkaza oladi va mavhum tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega emas".( Xolmonova. 86).<sup>9</sup> Piktografik yozuvda ma'lumot rasm orqali bayon qilingan. Yanada aniqrog'i bir rasm orqali barcha tushunchalar anglashilgan. Ma'lum davrlar o'tib piktografik yozuv o'z o'rnini ideografik yozuv turiga bo'shatib berdi. Ya'ni piktografik yozuvning rivojlanishi ideografik yozuv turini keltirib chiqardi. "Yozuvning bu turi logografik yozuv deb ham yuritiladi( "logos- so'z ", " grafo- yozaman"). Negaki, bunday yozuvdagি ramzlar narsa buyumlarni aks ettirib qolmay tildagi so'zlarni ham ifodalaydi."<sup>10</sup> Ushbu yozuvda ma'lumot ma'nosini shakllar bilan aks ettirish qiyin bo'lgan logogrammalar orqali yetkaziladi. Piktografik yozuvdan ideografik yozuvning farqi piktografik yozuvda bitta tasvir butun boshli axborotni uzatsa, ideografik

<sup>6</sup> Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish-Toshkent, 2007.21-22

<sup>7</sup> Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish-Toshkent, 2007, 86-b.

<sup>8</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild-Toshkent, O'zbekiston, 2000. 213.

<sup>9</sup> Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish-Toshkent,2007. 86-b.

<sup>10</sup> Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish-Toshkent,2007. 87-b.



yozuvda bir belgi faqatgina bir tushunchani anglatgan. Bu tur yozuvda tasvir kengaygan va o'quvchining ma'lumotlarni qabul qilish darajasi yanada osonlashgan. Logografik yozuvdan keyingi yozuv turi ieroglifik yozuv turi sanaladi.

Ieroglifik yunoncha " muqaddas" va " o'yiq" so'zlaridan olingan bo'lib, bir so'z, bo'g'in yoki tovushni ifodalashga xizmat qiluvchi fafik ifoda. ( O'zME. Birinchi jild. - T. 2000).<sup>11</sup> Ushbu yozuv ifoda etayotgan narsa buyum xususiyatlarini imkon qadar aks ettiradi. Ieroglifik yozuv mavhum tushunchalarni ifodalay olishi bilan o'zidan oldingi yozuvlardan farqlanadi".( Xolmonova Z. 87).<sup>12</sup> Ushbu yozuv asosan diniy masalalarni yoritishda tayanch nuqta vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham u " muqaddas yozuv" nomi bilan hozirgi kunga qadar saqlanmoqda.

"Garchi fonografik yozuv hozirgi vaqtida keng tarqalgan bo'lsa ham , kundalik hayotda yozuvning boshqa turlari ham uchrab turadi, chunki har bir turning o'ziga xos afzalligi bor. Masalan, piktografik yozuv odatda reklama ehtiyyotlari uchun qo'llaniladi. Ideogrammlar ko'cha harakatlarini ta'minlashda , matematikada ( 1, 6, 10), kimyoda ( H<sub>2</sub>O) keng qo'llaniladi. "<sup>13</sup>

Piktogramma va logogrammalarining hozirgi vaqtida ko'plab qo'llanilishiga sabab ularning tushunchalarni aniq, qisqa va tejamli ifodalashidir. Masalan, 12+29=41 deb so'zlar bilan yozsak bizga ancha vaqt va joy kerak bo'ladi".( Xolmonova 85).<sup>14</sup> Eng asosiysi hozir ham piktografik va ideograik yozuv o'z ifodasini saqlab qolgan. Vizual matn yaqin asrlarda shakllangan tur emas, balki ilk yozuv paydo bo'lgan davrlardan beri rivojlanib kelayotgan til birligidir. Hozirgi zamonaviy adabiyotlarda " vizual poetika" atamasi bilan yuriltilayotgan she'r

<sup>11</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild-Toshkent, O'zbekiston, 2000. 213.

<sup>12</sup> Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish-Toshkent,2007. 87-b.

<sup>13</sup> Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish-Toshkent,2007. 87-b.

<sup>14</sup> Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish-Toshkent,2007. 87-b.



turlarining asosiy poydevori mana shu ilk yozuvlar desak yanglishmagan bo'lamiz. Bu yangi termin "she'rni anglash bo'lib, she'r so'zlaridan nafaqat tasavvur, balki ko'rinishda ham foydalanishni maqsad qilgan" ( G. Gonja. Türk edebiyatında somut şiir. Türkbilig. 2005.10.1 bet)<sup>15</sup>. "Vizual poetika" terminiga yondosh leksema sifatida "beton she'riyat" , "aniq she'riyat", "tasviriy she'riyat", "konkret she'riyat" kabi bir necha atamalat ham yuritiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika-Toshkent , 2006
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild-Toshkent, O'zbekiston. 2020
3. Göhken T. Çağdaş türk edebiyatında görsel şiir-İstanbul, 2020. 250-b
4. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish-Toshkent, 2007.21-22
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild-Toshkent, O'zbekiston, 2000. 213.

### Internet ma'lumotlari:

Euromadik, 2014

<sup>15</sup> G. Gonja. Türk edebiyatında somut şiir. Türkbilig. 2005.10.1 bet